

TALABA-YOSHLARNI MA'NAVIY – AXLOQIY TARBIYALASHDA ZAMONAVIY USLUBLAR MAZMUNI

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich

*Farg'ona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti yoshlar
masalalari va ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari*

Mirzayeva Gavharoy Qosimjonovna

Farg'ona davlat universiteti fizika-texnika fakulteti tyutori.

Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Talaba-yoshlarning ma'naviy – axloqiy rivojlanishi – bu tarbiya yordamida ideal xulq dasturini, uning hayotiy tajribasi, ma'naviy ehtiyojga mos keladigan real xatti – harakat elementiga aylantirishdir. Bunday hol faqat o'quvchining ideali uning ma'naviy – axloqiy xatti – harakatlari andozasiga, me'yorlariga mos tushsagina, to'g'ri kelganidagina ro'y berish mumkin. Shu bilan birga ma'naviy – axloqiy tarbiya rivojlanish elementlari faqat tashqi muhitning bevosita yoki bilvosita ta'siridagina sodir bo'ladi va harakatga keladi. Talaba-yoshlarning va tashqi muhitning doimiy munosabatidagina uning ma'naviy – axloqiy rivojlanishi ta'minlanadi.

Talabalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasi o'ziga xos qarama – qarshiliklardan iboratligi aniqlangan. Ular:

1. Yoshlarning nasliy, anatomik – fiziologik imkoniyati bilan o'zlashtirib olingan xulq – atvor o'rtasidagi qarama – qarshilik. Masalan, asab tizimi harakatlanuvchan tipdagi o'smirlar tengdoshlari, o'rtoqlari bilan osongina muloqotga kirisha oladilar. Ammo, asab tizimi kuchsiz, sekin harakatga kiruvchi talabalar muloqotga sekin kirishadilar, o'rtoqlaridan orqada qolmasliklari uchun kirishishga majbur bo'ladilar.

2. Yoshlarning ma'naviy – axloqiy ideali bilan tabiiy imkoniyati o'rtasidagi qarama – qarshilik.

3. Yoshlarning dastlabki ma'naviy-axloqiy tajribalari bilan yangi ma'naviy ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshilik.

“O'zidan qoniqmaslik-oqilona hayot kechirish, va o'z ustida tinmay ishlashning zarur sharti hisoblanadi”, - deb yozgan edi rus pedagogi L.N.Tolstoy. O'zidan qoniqmaslik – ertangi kun hayotga intilishning muhim omili (A.S.Makarenko). talabada vujudga kelgan o'z – o'zidan qoniqmaslikni bartaraf etish, undan ta'lim tarbiya jarayonida samarali foydalanishda uch yo'nalishda ishlash lozim.

- Talaba oldiga umidni qo'ya olish;
- amaliy faoliyatning aniq rejalashtirish;
- erishilgan natija haqida axborot olish.

Talabalarning ehtiyojlarini oqilona boshqarish, rivojlantirish va qondirish ma'naviy – axloqiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining muhim qarama – qarshiliklaridan biri xarakterning tug'ma xususiyatlari bilan tarbiya jarayoni kelishmasligidir.

Tarbiya jarayonida Talabalarning ongini, tarkib topgan xarakter hislatlarini qayta – qurish o'zgartirish, yangisiga moslashtirishning murakkabligi hammaga ayon. Bunday qarama – qarshilik – talaba ideali bilan hayot amaliyoti o'rtasida, axloqiy ehtiyoji bilan uni qondirish imkoniyat va usullari o'rtasidagi kelishmovchiliklar asosida vujudga kelishi mumkin.

Tarbiya jarayonida talabalarning ma'naviy – axloqiy ehtiyojlarini qoniqtirishning turli usul va vositalari mavjud. Bular:

- talabalarning ma'naviy – axloqiy ehtiyojlarini kuchaytirish va qoniqtirishga e'tibor berish;
- ehtiyojlarni qoniqtirish “taqiqlash” yo`li bilan hal etish.
- o'smir nima xohlasa, uni qilishga sharoit yaratish;
- o'smirning ehtiyojlarini oqilona bajarish o`zining xatti – harakati, intilishlarini taqdirlash.

Talabalarning ma'naviy – axloqiy hislatlarini o`rganish jarayoni quyidagi pedagogik talablarga javob berishi lozim:

- ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini o`rganish, tahlil qilish tarbiya jarayoni tarkibiy qismi, o`quv – tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim;
- talabalarni ma'naviy – axloqiy hislatlarini doim o`zgarishda rivojlanishda deb o`rganish;
- tarbiyalanganlik me'yorlarini aniqlash va shu asosda tahlil qilish;
- talabalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganliklarini o`rganishda unga ta'sir etuvchi barcha omil, vositalarni hisobga olish;
- ularning ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajalarini alohida va jamoa bilan o`rganish lozim.

Demak, talabalarning ma'naviy – axloqiy jihatdan rivojlanishida uning ichki va tashqi qarama – qarshiliklarini anglab olish, uni yengishda oqilona usul va uslublardan foydalanish, bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning ongli faoliyatidan foydalanish yetarli samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Мирзиёев Ш. М.** Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн] : Маъруза / Шавкат Миромонович Мирзиёев. – Тошкент : Tasvir, 2021. – 36 бет :
2. **Мирзиёев Ш. М.** Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [Матн] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi
3. O.Erkaboyev, O. G‘aniyev. [Globallashuv sharoitida yoshlarning “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi kurashi](#). international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25
4. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma‘naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25
5. O.Erkaboyev, G.Qurbonova. [Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti kushandasi](#). PEDAGOG, 2023. 62-63
6. O.Erkaboyev, D.Tursunova. [Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish](#) . PEDAGOG, 2023. 59-61
7. Erkaboyev.O.M. [Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati](#). Ta‘lim fidoyilari-2022. № 3. С. 138-141
8. O.M. Эркабоев. [Жисмоний тарбия ва Чакирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари](#). Ta‘lim fidoyilari-2022. № 13. С. 4-8
9. O. Эркабоев. [Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 70-74
10. O.Erkaboyev. [O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 73-79
11. O.M. Эркабоев. [Наука в системе высших школ Республики Узбекистан](#). Архивариус. с 24-27
12. E.O. Muhammadjonovich. [Determination of the physical status of secondary school students through sociological research](#). Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
13. EO Muxammadjonovich, ME Abdujannonovich . [YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RNI](#). TADQI QOTLAR, 2023/4/4. 40-43